

## **Sogʻlom ona va bola – oila baxti**

Mustaqillik yillarida yurtimizda har bir kirib kelayotgan yilga munosib nom berish goʻzal bir anʼana sifatida yoʻlga qoʻyilgan. Bu orqali butun bir yil davomida amalga oshirilishi zarur boʻlgan ishlar rejalashtiriladi va mazkur yil nomida oʻz aksini topadi. Muhtaram Prezidentimiz tomonidan joriy etilgan bu islohot zamirida davlatimiz va jamiyatimiz uchun ulkan manfaatlar bor.

Farzand – oila quvonchi, ona – xonadon farishtasi. Ularning salomatligi koʻnglimizning xotirjamligi, halovatidir. Azaldan xalqimiz bolaning dunyoga kelishi, uning parvarishi va taʼlim-tarbiyasiga yuksak eʼtibor qaratgan. Oʻzaro mehr-oqibat tuygʻularini shakllantirish, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat koʻrsatish, el ishiga kamarbasta, vatanparvar, jismonan chiniqqan va maʼnan yetuk avlodni kamol toptirish milliy mentalitet va umrboqiy qadriyatlarimizning asosini tashkil etadi. 2016-yil davlatimiz rahbari tomonidan mamlakatimizda “Sogʻlom ona va bola” yili deb eʼlon qilindi.

Kuni kecha Oʻzbekiston avtomobil va daryo transport agentligi Toshkent shahar hududiy boʻlimi tomonidan, “Sogʻlom ona va bola yili” Davlat dasturini amalga oshirish maqsadida, mehr-muruvvatga muxtoj insonlar, jismoniy imkoniyati cheklangan nogiron oilalar va bolalarga, kam taʼminlangan fuqarolarga xayrli tadbirlarni amalga oshirib, joriy yilning 19-fevral kuni “Mehribonlik” Toshkent shahar Oʻzaro Ijtimoiy Yordam jamiyati yotagʻon nogironlari va 30 nafar nogiron bolalar hamda ularning ota-onalarini Toshkent shahar, Shayxontohur tumani hokimiyatining kichik zalida oʻquv qurollari va sport anjomlari, jumladan, shaxmat, badminton, xalqa, sakrogʻich, 3 turdagi futbol, basketbol va voleybol toʻplari hamda kiyim-kechaklar bilan taqdirlash taqdimoti boʻlib oʻtdi.

Barcha bolalar va ularning ota-onalari koʻzidagi xursandchilik namoyon boʻldi. Agentlikning Toshkent shahar hududiy boʻlimi boshligʻi S.Shoqosimov tadbirlar shu bilan cheklanib qolmasligini hamda ijtimoiy yordamga muxtoj bolalar va ularning ota-onalarini yaqinlashib kelayotgan umumxalq Navroʻz ayyomi arafasida Samarqand shahriga ziyoratga borib kelishlariga transport va boshqa xizmatlar bilan taʼminlab berishlarini taʼkidlab oʻtdi.